

ZAMON SHAKILLARIDA TEMPORALLIKNING QO'LLANILISHI

Amirova Nargiza

(Lingvistika –o‘zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti)

Maqolada temporallik kategoriyasining badiiy matnda voqelanishini zamonaviy tilshunoslik metodlari vositasida tahlil etish muhim xulosalarga olib kelishi, temporallik semantikasining badiiy asar matnidagi keng ko‘lamli imkoniyatlari hamda zamon shakllarida temporallikning qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Temporallik kategoriyasining badiiy matnda voqelanishini zamonaviy tilshunoslik metodlari vositasida tahlil etish muhim xulosalarga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuv istiqbolida temporallik semantikasining badiiy asar matnidagi keng ko‘lamli imkoniyatlari oydinlashadi. Zamon kategoriyasiga oid grammatik shakllar badiiy matnda temporallik maydonining markazini tashkil etuvchi kuchga ega bo‘ladi. Buning asosiy sababi shundaki, matnni tuzuvchi elementlar, ular grammatik yoki nogrammatik tabiatga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, voqelikdagi davriylik, vaqt oralig‘i munosabatlarini aks ettiradilar. Farq faqat ushbu munosabatlarning aniq yoki noreal (tasavvurdagi) voqelik doirasida hosil bo‘lishida ko‘rinadi.

O‘zbek tilida vaqt ma‘nosi mustaqil til birligi (semema) yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi (sema) sifatida mavjud. Vaqt semantikasi o‘zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. O‘zbek tilshunosligida vaqt ma‘nosi payt ravishlari, vaqt ma‘noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe‘llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik yo‘nalishlarda o‘rganilgan yoki qayd qilingan¹. Matn strukturasi va mazmuni o‘rtasidagi munosabatga bo‘lgan qiziqish zamon kategoriyasining matn yaratilishi jarayonida bajaradigan vazifasini aniqlash muammosini ham tug‘dirdi. Ma‘lumki, matn nutqiy tafakkur faoliyati mahsulidir, u ma‘lum shaxs – matn muallifining tafakkuriy harakatlari natijasida hosil bo‘ladigan hodisadir. Matn ijodkori obyektiv olamda kechayotgan yoki tasavvur qilinayotgan voqea - hodisani his qiladi, idrok etadi hamda ushbu hodisa haqida mantiqiy tasavvurga ega bo‘ladi. Axborot uzatish vositasi bo‘lgan

¹Хакимова М.Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: филол. фан. номз. ...дисс. автореф. -Фарғона. 2004. –Б.3.

matn mazmunida zamon va makon ko'rsatkichlarining ham mavjud bo'lishi muqarrar talabdir.

Voqelikni bilish va uni mantiqiy, ya'ni konseptual o'zlashtirish hamda lisoniy voqelantirish ko'p bosqichli, qarama-qarshiliklarga boy mukammal jarayondir. Bilish faoliyati dialektikasiga xos bo'lgan bunday xususiyatlar temporallik ma'nosining nutqiy ifodalanishida ham o'z aksini topadi. Buni biz, ayniqsa, zamon kategoriyasi doirasida ajratiladigan shakl va vositalarning grammatik tizim va matn tarkibida bajaradigan vazifalari muvofiq kelmasligida yaqqol ko'ramiz.

Zamon kategoriyasini grammatik tizim va matn muhitida o'zaro zid hodisalar sifatida talqin qilishning yagona sababi ushbu kategoriyani har qanday holatda ham grammatik shakl nuqtai nazaridan, grammatik paradigmalar doirasida o'rganishga bo'lgan ehtiyojdir. Grammatik birliklarning kategorial xususiyatlari ularning nutqiy muloqot jarayonida, ma'lum matnlar tarkibida qo'llanishida o'z ahamiyatini yo'qotmasligi aniq. Ammo zamon kategoriyasi ma'no xususiyatlarini faqatgina zamon shakllari paradigmaticasi bilan bog'lash ushbu kategoriyani tor ma'noda belgilash va uning funksional-semantik mohiyatining chegaralab qo'yilishiga olib kelishi mumkin. Zamon kategoriyasiga xos barcha ma'no va vazifaviy belgilarni yagona bir butunlik ko'rinishida tasavvur etish uchun ushbu kategoriyaning sintagmatik bosqichdagi tadqiqi bilan shug'ullanish zarurdir.

Shuni qayd etish lozimki, temporallik ma'nosining nutq sintagmatikasi bilan bog'liq ekanligi u yoki bu shaklda zamon kategoriyasiga nisbatan berilayotgan tilshunoslikka oid ta'riflarda ham o'z ifodasini topgan. «Grammatik zamon kategoriyasi, deb yozadi A.Hojiyev, - harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi»². Yoki «payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash zamon kategoriyasiga xos xususiyatdir»³. Zamon kategoriyasida ifodalanadigan ma'no harakatning nutq momentiga nisbatan belgilanishi bilan bog'liq ekanligini temporallik hodisasiga berilgan ta'riflarda ham ko'rishimiz mumkin. Temporallik ma'nosining nutq momentiga nisbatan «mo'ljal olishi» zamon deysisining asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekanligini e'tirof etish bilan birga, ushbu mo'ljalning turli sharoitlarda turlicha tarzda kechishini ham unutmaslik lozim. Temporallikni ifodalovchi

² Ўзбек тили грамматикаси. –Тошкент: Фан, 1975. –Б.475-476.

³ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. –Тошкент, 2007. –Б.208-209.

vositalarning qo'llanishida so'zlovchi ma'lum kommunikativ maqsadni ko'zlaydi va shu maqsadni amalga oshirish uchun harakat qiladi.

Nutq vaziyatiga nisbatan olingan mo'ljalda temporallik ma'nosi har doim ham bir xilda bo'lishi, aniq ifodalanmasligi namoyon bo'ladi. Masalan, badiiy matnda voqelik bayoni bevosita nutqiy faoliyat jarayonidagi bayonga nisbatan o'zgacha kechadi va shu sababli bu turdagi matnlarda nutqiy vaziyatga nisbatan mo'ljal uncha faol emas. Xuddi shu holat badiiy matnda o'tgan zamon formasining turli ma'no ottenkalarini ifodalashiga sabab bo'ladi. Ular harakat «nutq momentida emas, undan oldin» bajarilganligiga va bu voqelik realligi hamda aniq vaziyatda kechganligiga ishora qilish bilan bir qatorda, o'tgan zamonda kechganligi tasavvur qilinayotgan to'qima voqelikni ifodalashi ham mumkin: *Манаҳозируўшаёшлиғиўтгансойкўприғиустидатурипти... Шу соҳилларда у балогатга етди. Шу оролчаларда не-не буюк орзулар оғушида маст бўлган. Ниҳоят, жимжит сертупроқ кўчаларда кезиб, муҳаббатнинг бир умр унутилмас, қўшиқдек кўнгилни яйратувчи, газалдек юракка қуюлувчи, тушдек туманли онларини кечирган. У кунлар энди қайтмас бўлиб олисга, жуда олисларга учиб кетган* (Саид Аҳмад).

O'tgan zamon grammatik shakli badiiy matnda hukm propozitsiyasiga xos bo'lgan o'tgan davrda sodir bo'lgan voqea haqida xabar berish vazifasidan xolos bo'lishi mumkin. Matn grammatikasini maxsus o'rgangan O.I.Moskalskayaning ta'kidicha,

o'tgan zamon formasidagi nutqiy tuzilmalar badiiy tasavvur mazmuniga egabo'lishib, o'quvchini badiiy asar datasvirlanayotgan hozirgi zamon voqeligiga ko'chiradi.

Zamon shakllarining gap va matn sathlarida bajaradigan vazifalaridagi farq ushbu shakllarning payt holi bilan birikishida ham seziladi. Masalan, badiiy matndan olingan *Lekin ertalab bolaning ahvoli ancha yaxshi edi* tuzilmasida o'tgan zamon shaklining qo'llanishini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda o'tgan zamon ma'nosi ifodalanishi haqida gapirish qiyin.

Ko'pincha, o'tgan zamon shaklidagi badiiy matn o'tgan zamon ma'nosini emas, balki hozir davom etayotgan hodisa bayonini ifodalashga xizmat qiladi: *Осмоннинг ярмини қора девор бўлиб тўсиб ётган тоғ тизмалари орқасидан шошилмай бир четисинган ликонча декой кўтарилди. Бирданига атроф – тошлар, гиёҳлар кумушранга кирди* (Саид Аҳмад).

Ma'lumki, bevosita nutqiy muloqot muhitida o'tgan zamon shakli «ertaga» «kelgusida» kabi hollar bilan birika olmaydi. Bunday vaziyatda qo'llaniladigan shakllar faqatgina hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridir. Demak, o'tgan zamon shaklining kelasi zamon holi bilan bog'lanishi faqatgina badiiy nutq uchun xosdir va bunday holatda grammatik shakl o'tgan zamon ma'nosini yo'qotadi.

Fikrimizni matn orqali dalillaymiz: *Тусатданзовларичиданкакликнинг «қийиқ, қийиқ», деганзорланишиишитилди, сўнгбутовушҳамқояларичигасингибкетди.* Норматнингюрагийўқотибқўйганонасинибирданкўрибқолгангўдакникидай безовтаэди. *Ҳаттоэнгкичиктошларҳамжой-жойидатурганбўлса-да, унингназаридаҳамманарсаўзгаргандай, ўзруҳигамоссиниққандайэди*(НазарЭшонкул).

Xuddi shuningdek, o'tgan zamon shaklining matn tarkibida «hozir», «endi» kabi zamon hollari bilan birikishida o'ziga xos mazmun hosil bo'ladi. A.Hojiyevning kuzatishicha, bunday sintagmatik tuzilmada nutq momentiga nisbatan ishora bevosita bo'lmasdan, balki payt holi nisbiy tarzda qo'llaniladi⁴: *Кечаяқинқишлоқустидагибулоққакелди, отникексаарчагабоглаб, ўзибулоқнингбошидагинамтошгаўтирди. Убутунуруидавомидаўйлаган, орзуқилгантинч, осудаҳаётгақайтганиниэндианглади... У, шуудафъахотиниммениқандайкутиболади, деганҳадиғиэндиўтибкетганини, хотинидунёдағиэнгяхишотинэканиниҳисэтди. Кўнгилдарчаларинияшинаб-яшинабкелаётганҳаётгақараталангочибқўйди*(НазарЭшонкул).

O'tgan zamon shaklining badiiy matn tuzilishida qo'llanishi tahlilida yana bir semantik hodisaga ahamiyat berish kerak bo'ladi. Bu hodisa ish-harakatni ifodalayotgan fe'llar semantikasi bilan bog'liqdir. Odatda, bevosita nutqiy muloqot vaziyatida biz harakat sub'yekti faoliyatini kuzatsak, uning *turdi, yotdi, o'tirdi, bordi, keldi* kabi turli mexanik harakatlarni bajarayotganligini aniq bilamiz, lekin yuqoridagi vaziyatda intellektual faoliyatni ifodalovchi *o'ylamoq, umid qilmoq, fikr yuritmoq, ishonmoq, sezmoq* kabi fe'llarning o'tgan zamon shaklida qo'llanishi orqali ish-harakatning hozirgi zamonda yuz berayotgani tushuniladi.

Lekinushbu fe'llarningmatntarkibida o'tgan zamon formasidauchrashijudako'pkuz atiladi: *Келганиданбериҳечишонмаётган, ҳечўзиникўниктираолмаётган, худдибировнингўрнидаяшаётгандайтуялаётганҳаётиўзиникиэканини, бегонадекбўлибқолганАнзиратҳам, манашутогларҳам, шутоглардаяшовчиодамларҳамфақатўзиникиэканигаишондивадунёдағиҳа мманарсаунингбахти, қувончиучуняратилганинитуйди, эндибунарсаларниҳечнарсасаалмаишмайман: буларменингҳаётимданҳамазиз, менгаҳаётбахиэтди, дебўйлади* (НазарЭшонкул).

⁴ Ўзбек тили грамматикаси. –Тошкент: Фан, 1975. –Б.483-484.

Keltirilgan misollar o'tgan zamon formasining ma'nosi badiiy asar matnida neytrallashtirishdan darak beradi, ya'ni ushbu forma «epik zamon» ifodalanayotganda grammatik vazifani o'tamaydi. Shu sababli o'zbek tili tizimida mavjud bo'lgan o'tgan zamon analitik shakllari ko'pincha bayon qilinayotgan (tasvirlanayotgan) holatning o'tgan davrda emas, balki hozir mavjudligi ma'nosini beradilar⁵:

*Норматюрагидаги хислар қайтадан тирила бошлаганини,
ўзда яратиш қуввати пайдо бўлаётганини сезди. Бу —
ўша афсонадаги Еродамларидан,
бобоси Бойхундан қолган Ерга Муҳаббат эканини оғриқвароҳат билан туйди.
Унинг кулфат, азоб, изтироб, қўрқув,
шубҳа ва иккиланиш эзиб ташилаган қалбда умид уйғона бошлади
(Назар Эшонкул).*

Ayrim tilshunoslar zamon shakllari badiiy matn tarkibida aniq (real) zamon tizimidan uzoqlashishini isbotlashga harakat qiladilar. Bizningcha, bu fikrga to'liq qo'shilishi qiyin, u ayrim izoh va aniqliklarga muhtoj. Ma'lumki, badiiy asar yaratilishida ikki asosiy tamoyil ustuvorlik qiladi: birinchidan, badiiy tasvir ob'yektining shartliligi, to'qima, ya'ni xayoliyligi bo'lsa, ikkinchidan, unda borliqda mavjud bo'lgan voqelikning aks topishi. Birinchisi ustuvorligida o'tgan zamon shakli haqiqatdan ham real o'tgan zamon voqeligini tasvirlashdan ko'ra, ko'proq vaqt oralig'i (zamon) doirasiga kirmaydigan ma'lum mohiyatga ishora qiladi. Lekin shunga asoslanib, bu ko'rinishdagi o'tgan zamon shaklini vaqt tizimidan tashqi hodisa degan fikrga kelish noto'g'ridir. Epik o'tgan zamon yoki boshqa ko'rinishdagi shakllarning boshqa ma'no kasb etishida funksional ko'chish yuzaga keladi va bunday ko'chish zamon shaklining boshqa pog'onadagi tuzilma – matn tarkibida qo'llanishi natijasida yuzaga keladi.

Badiiy asarda zamon kategoriyasi nutq momenti bilan bog'liq emas, chunki unda borliq ob'yekti unga xos bo'lgan barcha ko'rinish-shakllar umumlashmasidan nusxa ko'chirish orqali tasvirlanmaydi. Bu tasvir aslida bir reallik (voqelik)ning ikkinchisiga ko'chishidir va bunda zamon shakli «bu sodir bo'lishidan oldin» hamda «bu sodir bo'lishidan keyin» kabi mazmun munosabatlarini belgilaydi. Xuddi shu munosabatlar asosida bajarilayotgan harakatlar tartibi, ketma-ketligi aniqlanadi.

Badiiy asarning san'at asari, namunasi ekanligi ma'lum. Badiyatda tasvirlanayotgan voqelik axborotni qabul qiluvchi tasavvuriga ko'chadi. Shuning uchun ham badiiy asarning o'quvchiga, axborot retsipientiga ta'siri uning

⁵ Ўзбек тили грамматикаси. –Тошкент: Фан, 1975. –Б.479-482.

mazmunini belgilovchi asosiy marra, mo'ljaldir. Bevosita nutqiy muloqot jarayonida «shu yerda va hozir» deysis maydonini belgilovchi nuqta nutq momenti va o'tgan zamon formasi ushbu nuqtadan oldingi davrni ko'rsatadi, badiiy matnning deytik markazida esa o'tgan zamon hikoyasidagi «shu yerda va hozir» turadi. Bunda o'tgan zamon shakli matn mazmuni obrazlilikini ta'minlovchi vositaga aylanadi. O'quvchi matn bilan tanishayotib, o'zini muallif tasvirlayotgan zamonda ko'radi, u fikran o'tgan va hozirgi davrni qarama-qarshi qo'ymasdan, balki tasvirlanayotgan voqealarni bevosita ko'z oldida kechayotgandek tasavvur qiladi. Bu tasavvur orqali subyekt ayni vaziyat bilan bevosita aloqasi yo'q bo'lgan va xotirada saqlangan obrazlarni, ularning elementlarini tinglashga imkon topadi, his-tuyg'ular qayta idrok etishga jalb etiladi. Zero, tasavvur ongimizda narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etmagan holda qayta hosil qilinadigan va saqlanadigan hissiy obrazdir.

Ma'lumki, ijodkor o'tmishni zamonasi orqali idrok etadi, o'tmish zamona prizmasi orqali gavdalanadi. Boshqacha aytsak, ijodkor tarixiy voqelikni zamonasidan andoza olgan holdagina badiiy gavdalandira oladi. Negaki, u o'tmishda yashab ko'rgan emas, uning hayot haqidagi, inson, insonlararo munosabatlar haqidagi tasavvurlari zamonasida shakllangan. Ya'ni, faktlar o'tmishdan olingani holda xarakterlar talqini, hayotiy holatlar tasvirida ijodkor o'zining hayotiy tajribasiga tayanadi. Demak, ijodkor tasvirda zamonasidan nechog'li uzoqlab ketmasin, badiiy talqinda undan tamoman uzilib ketishi mumkin emas. Shunga ko'ra, tarixiy mavzudagi asar ayni paytda zamonaviy asardir. Bu fikrimizni o'zgacharoq yo'sinda asoslashga harakat qilamiz. Ma'lumki, adabiyotshunosligimizda “mavzu asarda tasvirlangan hayot materialini bilan unda qo'yilgan muammolar jamini tashkil qiladi” tarzidagi fikr ustuvorroq. Holbuki, mavzu va problema bir-biriga uzviy bog'liq, biroq boshqa-boshqa tushunchalar. Shu bois ham adabiyotshunoslikda asarda qo'yilgan muammolarni problema, qalamga olingan hayot materialini mavzu deb ajratish an'anasi ham mavjud va bu, bizningcha, to'g'riroq ham. Tabiiyki, ijod jarayoni nuqtai nazaridan problema birlamchi: san'atkor o'z hayot yo'lida muayyan muammolarga duch keladi, ularni o'zi uchun hal qilishdek o'tkir ehtiyojni tuyadi. Sirasi, ayni shu ehtiyoj badiiy ijodga turtki beruvchi birlamchi omildirki, badiiy asarni “ehtiyoj farzandi” (A. Oripov) deyilishi bejiz emas. Problema mavzuni belgilaydi, negaki, ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etishga eng qulay imkoniyat bera oladigan hayot materialini qalamga oladi. Tarixiy mavzudagi asarning zamonaviyligi ham ayni shu narsa bilan —

problemaning har vaqt zamonaviy (yoki zamon tushunchasidan yuqori — mangu muammo) bo'lishi bilan belgilanadi⁶.

Har qanday matn mazmunida temporallik va lokallik (zamon-makon) munosabatlarining aks etish xususiyatlarini tahlil etish matn tilshunosligining dolzarb muammolaridandir. Zero, «badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi»⁷.

Badiiy matn temporal strukturasi uning tarkibida ikki ko'rinishdagi zamon subsistemasining ajratilishi va o'zaro munosabatda bo'lishi bilan bog'liqdir. Badiiy asar matnida xuddi shu ikki, ya'ni muhokama va bayon qilinayotgan voqelik o'zaro tutashadi. Muhokama qilinayotgan voqelik personajlar nutqida (dialogik nutqda) o'z aksini topsa, bayon qilinayotgani esa ko'pincha muallif nutqida (monologda) ifodalanadi. Ushbu ikki turdagi voqelikning hamda ularni aks ettiruvchi personajlar va muallif nutqining chegarasi bir-biriga mos keladi hamda matn temporalligi xususiyatlarini belgilab beradi, chunki matn temporalligi mundarijasini dialogik va monologik nutqlarning zamon ko'rsatkichlari qarama-qarshiligi tashkil etadi.

⁶Курунов Д. Бадий асар тили ҳақида. <http://www.quronov.narod.ru/>

⁷Юлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Тошкент: Фан, 2007. —Б.85-86.